

**SELECTION OF DIDACTIC MEANS IN THE DEVELOPMENT OF SPECIAL COMPETENCES OF TECHNOLOGY TEACHERS**

Mardonov Ruslanjon

Karshi State University

Teacher of the Pedagogical Institute

**ANNOTATION**

The article covers a wide range of issues related to the preparation and design of teaching using didactic tools in the lessons of "Technology". There are also examples of the development of competencies in the proper selection and use of teaching aids in the development of special competencies of teachers of "Technology".

**Keywords:** "Technology" teacher, teaching aids, lessons, print, real and technical means, visual and practical aids, educational process.

**Annotatsiya:**

Maqola "Texnologiya" fani darslarida didaktik vositalardan foydalanib o'qitishga tayyorgarlik ko'rish va ularni loyihalashtirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, "Texnologiya" fani o'qituvchilarining maxsus kompitensiyalarni rivojlantirishda ta'lif vositalarni to'g'ri tanlash va foydalanish kompitensiyalarni rivojlantirish bo'yicha misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** "Texnologiya" fani o'qituvchisi, ta'lif vositalari, dars, bosma, real va texnik vosita turlari, ko'rgazmali va amaliy vositalar, o'quv jarayoni.

**Аннотация:**

В статье освещен широкий круг вопросов, связанных с подготовкой и оформлением обучения с использованием дидактических средств на уроках «Технологии». Также есть примеры развития компетенций при правильном выборе и использовании учебных пособий при развитии специальных компетенций учителей направления «Технологии».

**Ключевые слова:** Учитель «Технологии», учебные пособия, уроки, печать, реальные и технические средства, наглядные и практические пособия, учебный процесс.

**INTRODUCTION**


Didaktik vositalardan unumli va samarali foydalanishda kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladigan vaziyatlar muhim ahamiyatga ega. Guruhlarda ishlashda o'quvchilarning muloqotga kirishish, o'z fikrini aytish, boshqalar fikrini bo'lmasdan eshitish, faol ishtirok etish, bir-birining nuqtai nazarini hurmat qilish kabi ijodiy xususiyatlar shakllanadi.

**Ta'lif vositalari**-o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir.

Ta'lif vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

1. Ta'lif beruvchi uchun;
2. Ta'lif oluvchi uchun;
3. Dars o'tkazish uchun;

Quyidagi chizmada texnologiya fanida ko'rgazmali va amaliy vositalardan foydalanib dars o'tishda qo'llaniladigan ta'lif vositalarini tanlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Ta'lif vositalarini tanlash.

**Ta'lif beruvchi uchun vositalar:** o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasи, ma'ruza matni.


**Ta'lif oluvchi uchun vositalar:** darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqlari va hokazolar.

**Dars o'tkazish uchun vositalar:** plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar (projektor, kompyuter, flipchart va boshqalar), real vositalar.

Ba'zi hollarda ta'lif oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lif vositasi ta'lif beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi kerak. Bundan tashqari ta'lif vositalarini xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar.

Quyidagi chizmada ta'lif vositalarining turlari keltirilgan (1.3.2-rasm).

Ta'lim vositalari 6 turga bo'linadi:



1.3.2-rasm. Ta'lim vositalarining turlari

**Matnli** vositalarga quyidagilar kiradi:

Ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun

- o'quv dasturlari;
- maxsus adabiyot (darslik);
- ma'ruba matnlari;
- tarqatma materiallar;
- imtihon va nazorat varaqalari.

**Tasvirli** vositalarga quyidagilar kiradi:

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- fotosuratlar;
- eskiz, chizma, sxemalar;
- tasvirlar, jadvallar, simvollar;
- plakatlar.

**Audiovizual** vositalarga quyidagilar kiradi:

Jarayonlar va ishslash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga kellтирish uchun

- videofilmlar;
- kompakt disklar;

- audiokassetalar;
- power point materiallar;
- elektron darsliklar.

#### **Yordamchi (jihozli) vositalarga quyidagilar kiradi:**

Tasvir va matnni yozish va saqlash uchun

- doskalar (bo'r doska, oq doska (markerli), magnit doska, elektron doska, pinbord doskasi v.b);
- videoproyektor, videoproyektor doskasi, ekran;
- kompyuter;
- flipchart;
- audiomagnitafon, videomagnitafon;
- televizor.

#### **Modelli vositalarga quyidagilar kiradi:**

O'rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun

- modellar;
- maketlar;
- mulyajlar.

#### **Haqiqiy vositalarga quyidagilar kiradi:**

O'rganilayotgan ob'ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- asbob-uskunalar;
- stanoklar;
- yarim tayyor va tayyor mahsulotlar;
- xom-ashyolar.

Ko'rgazmali va amaliy vositalardan mohirona foydalangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish zamon talabidir. Ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobuliyatlarini shakllantirishdan, zamonaviy informatsion vositalardan foydalanish va o'z bilimlarini har qanday muammoni yechishga qo'llay olishlariga o'rgatishdan iborat.

Darslarda ko'rgazmali va amaliy vositalardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish ahamiyatlidir:

- o'quvchilarni turli muammolarni hal qilishga yo'naltirish;
- turli tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish;
- muammoli vaziyat yarata olish va ulardan chiqa olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- darslarda turli tarzdagi amaliy tajribalar o'tkazish;
- yangi bilimlarni izlash va ularni tahlil qilishga yo'naltirish.

Darslarda turli ko'rgazmali va amaliy vositalardan foydalanishda turli ijodiy topshiriqlar, ijodiy mashqlar, ijodiy mustaqil ishlar va turli didaktik o'yinlarni ham misol qilish mumkin.

Darslarda ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar amaliyatga tatbiq qilinsa, olingan

dalillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini qo'llash imkoniyatlari vujudga keladi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish metodi eng qulay, samarali va tushunarli metod hisoblanadi. Zero, ko'rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko'proq va taktik organlarga nisbatan 13 marta ko'proq ma'lumotlarni miyaga yetkazadi. Bu ma'lumotlar tez, oson va mustahkam o'rnashib qoladi. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish metodi o'ziga xos tamoyillarga asoslanadi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish qoidalari juda ko'p bo'lib, ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. So'z bilan emas namoyish bilan ko'proq, tez va oson tushunib olish mumkin.
2. Shuni yodda tutish lozimki o'quvchilar rang, shakl, tovush (ohang) orqali tezroq tushunadi.
3. Ko'rgazmalilik maqsad emas, vosita ekanligini unutmang.
4. Tushuncha, bilim, aniq dalil va ko'rgazma bilan samarali ekanligini unutmang.
5. Ko'rgazmalilik faqat tomosha emas, balki bilim olishning manbai, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o'rgatuvchi omildir.
6. Ko'rgazmali vositalardan foydalaning, ammo juda ko'p emas. Chunki bu o'quvchi diqqatini bo'lib, charchatib, asosiysidan chalg'itadi.
7. Ko'rgazmali vositalarni o'quvchilar bilan birga tayyorlash samarali natija beradi.
8. O'zingiz bilmagan ko'rgazmali vositalarni ishlataman deb ovvora bo'lmaning, uyalib qolasiz. Oldin o'zingiz yaxshilab o'rganing.
9. Axborot texnologiyalari va ta'limning texnik vositalaridan foydalanishni biling.
10. Ko'rgazmali vositalardan foydalana turib diqqat, kuzatuvchanlik, tafakkur madaniyati, loyihalash, ijodkorlik va o'qishga qiziqishini o'rgating.
11. Ko'rgazmalilikning yoshga, nafosatilikka, ilmiyilikka mosligiga e'tibor bering.
12. Ko'rgazmalilikning hayot bilan bog'liqligiga e'tiborni qarating.
13. Ularni kerak bo'lganda, navbat kelganda ishlating. Oldindan hammasini ochiq qo'yib, o'quvchilar diqqatini bo'lmaning.
14. Ko'rgazmalilik harakatli, animatsion bo'lishiga e'tibor bering.
15. Elektron darslik, multimedia, videotasma, proyektor va hokazolardan foydalanishga harakat qiling.

Amaliy mashg'ulot darslarida polimer materiallarga ishlov berishda qo'l mehnatiga boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, texnologiya fanini o'qitishning ham xilma-xil usullarini qo'llab, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z xotiralari orqali buyumni bajarilishini eslashlari talab etiladi. Biroq asosiy o'rinni na'muna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshiradi, takomillashtiradi va unga sayqal beradi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun, uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni, usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Amaliy mashg'ulot darslarida polimer materiallarga ishlov berish uchun odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchi o'quvchilar tarqatadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Avliyaqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T.:2001-y.
2. Bekmurodova S.O'. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondoshuv. // Metodik qo'llanma.– T.: RTM, 2017.
3. Tohirov O'.O. Mehnat ta'limi fanini mazmunan modernizatsiyalash omillari. // "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limi sifati va samaradorligini ta'minlashning dolzARB masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–T.: Fan va texnologiyalar, 2017.
4. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-Toshkent nashriyoti, 2017-y.
5. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarining mustaqil ta'limining ilmiy metodik asoslari. Diss. ped. fan.nomzodi.–T. 2008.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) .
2. <http://www.istedod.uz/>
3. <http://www.pedagog.uz/>
4. Texnologiya fani o'qituvchilari portalı: [www.texnologiya.zn.uz](http://www.texnologiya.zn.uz)
5. [www.iite.ru](http://www.iite.ru).
6. [www.21st](http://www.21st)